



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 460 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoirra Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili .....	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida .....	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni .....	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	190
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar) .....	195
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari .....	199
<i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS	O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati ..... 202 <a href="#">Baymanova Feruza Abralovna</a>
Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari ..... 207 <a href="#">Xayitova Ulfatoy Tursunovna</a>	
Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ..... 211 <a href="#">Turg'unboev Sirojiddin Faxriddinovich</a>	
Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi... 216 <a href="#">Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li</a>	
Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы ..... 225 <a href="#">Шахноза Холмуродова Зоир кизи</a>	
O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli ..... 234 <a href="#">Farsaxonova Mastura Jalol qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli ..... 241 <a href="#">Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi</a>	
Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi ..... 244 <a href="#">Sitara Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviyat qizi</a>	
Amudaryo foreli ( <i>Salmo trutta oxianus</i> ) O'zbekiston hududida tarqalishi va ekologiya ta'siri..... 248 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Sevinch Sirojiddinova, Qurbonazarova Marjona Zokirovna</a>	
Suv va quruqlik muhitiga moslashgan amfibiyalarda adaptatsiya xususiyati ..... 251 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Axmamatova Feruza Shamsiddin qizi, Qo'ldoshova Ruxshona Navro'z qizi</a>	
O'zbekistonda tarqalgan kaptarsimonlar xilma-xilligi, ularni tarqalishi, biologik xususiyatlari va amaliy ahamiyati ..... 255 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Jasmina Baxtiyor qizi, Saidova Dilnoza Rustamovna</a>	
Surxondaryo viloyatidagi qo'lqanotlilar turlarining morfologik tasnifi va hududiy farqlari ..... 259 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Yarashova Sarvara Islomovna, Bahromova Shahzoda Abduqodirovna</a>	
Игровые технологии как средство активизации коммуникативной деятельности учащихся на занятиях по русскому языку ..... 267 <a href="#">Халикова Гульбахор Исановна</a>	
Yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish ishlarini o'rganishning konseptual va metodologik asoslari ..... 270 <a href="#">Matkarimova Muxabbat Abuovna</a>	
O'qish savodxonligini baholovchi topshiriqlar turlari ..... 277 <a href="#">Rasulova Mushtariybonu</a>	
Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlaridagi bolalarda tashqi nafas olish tizimi xususiyatlari ..... 281 <a href="#">Orazbaeva Navbaxor Mratbaevna</a>	
“Kompyuter tarmoqlari” fanini o'qitishda dasturiy-didaktik vositalardan foydalanish ..... 285 <a href="#">Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o'g'li</a>	
Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari (Qashqadaryo viloyati misolida)..... 288 <a href="#">Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, Safarova Sevara Saloxiddinovna</a>	
Raqamli ta'lim strategiyalaridan foydalanib o'qish samaradorligini oshirish ..... 294 <a href="#">Narzullayeva Gulzira Xayrullo qizi, Abdusottarova Farog'at Olimjon qizi</a>	
Oliy ta'limda “Zoologiya” kursini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (“umurtqali hayvonlar” misolida)..... 299 <a href="#">Xonnazarova Mamlakat To'lqinovna</a>	
Oliy ta'lim muassasalarida ommaviy sportni rivojlantirish strategiyalari ..... 303 <a href="#">Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li</a>	
Accommodating a Teenage English Learner With Tourette-Related Stammering in Uzbekistan State Multilevel Test Preparation: A Single-Case Study ..... 307 <a href="#">Yulduz Sultanova</a>	
Yengil atletikada to'siqlar osha yugurish texnikasini takomillashtirish va o'rgatish uslubiyati ..... 313 <a href="#">Chariyev Ulug'bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</a>	



The Interaction of Language and Culture in Intercultural Conflict Communication .....	317
<b>Gulnoza Khushnazarova</b>	
O'smir shaxsida o'zini o'zi tushunish psixologik muammo sifatida.....	321
<b>Mahmudov Abdurasul</b>	
O'quvchilar nutqida milliy-madaniy leksik birliklarni qo'llashga o'rgatishda semantikashtirish .....	325
<b>Tursunova Javhar Bakir qizi</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda matematik madaniyatni shakllantirish: Qori Niyoziy merosi asosida.....	329
<b>Axmedova Nargiza Toychibekovna</b>	
A2 darajadagi o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda adaptiv yondashuvning roli .....	333
<b>Nezametov Zuxra Axmadovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kasbga ijodiy munosabatni tarbiyalashning nazariy asoslari.....	336
<b>Axmatov Ibrohimjon Furqat o'g'li</b>	
Voyaga yetmaganlar profilaktikasida maktab, oila va mahalla hamkorligining zamonaviy holati va diagnostikasi .....	340
<b>Japparbergenova Indira Bayramovna</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishni pedagogik tizimini takomillashtirish .....	344
<b>Amankosova Dinara Gabitovna</b>	
Innovatsion usullar vositasida maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirish.....	348
<b>Mamatova Aziza Bo'riboyevna</b>	
Dzyudoning olimpiya o'yinlaridagi o'rni va ahamiyati .....	353
<b>Jaxongir O'razbayev Temur o'g'li</b>	
Umumta'lim maktab o'quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan harbiy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari.....	356
<b>A'zamov Inom Salimjonovich</b>	
The Role of Digital Platforms in Developing Students' Independent Learning Competency.....	360
<b>Jo'rayeva Zamira Ishmuminovna, Uraqova Shaxlo Turdiyevna</b>	
Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati .....	365
<b>Toshpo'latov Olim Panjiyevich</b>	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarining ta'lim jarayonlarini tashkil etish .....	370
<b>Bektemirova Asilabonu Akmal qizi</b>	
Kreativ ta'lim texnologiyalari asosida talabalarda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	374
<b>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</b>	
Bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va yosh xususiyatlari .....	378
<b>Erkinboyev Muhammadqodir Nodirbek o'g'li</b>	
Tasviriy san'at darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....	383
<b>Xushvaqtov Abror Doniyor o'g'li</b>	
Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy o'qitish metodlari va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	387
<b>Murodova Dilafro'z Matmurod qizi, Sattarova Bibijon Muzaffar qizi, Bekmurodova Muhayyo Uralbayevna</b>	
Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish borasidagi milliy va xorijiy tajribalar .....	391
<b>Aralova Maxsuma Abdurahmonovna</b>	
Yuqori sinf o'quvchilariga chet til o'qitish va o'rgatishda motivatsiyaning o'rni xususida.....	396
<b>Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, Ismoilova Feruza Salimjon qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion metodlar .....	400
<b>Axmedova Fayziniso Otabek qizi</b>	
Bo'lajak pedagoglarning uzluksiz amaliy faoliyatida professional salohiyatini rivojlantirish yo'llari .....	403
<b>Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi</b>	

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	406
<b>J. B. Jumabayev</b>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	412
<b>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</b>	
Biologiya ta'lim jarayonida ilg'or hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash.....	416
<b>Mo'minov Dilshod Yaxshiboy o'g'li</b>	
Oliy ta'limda masofaviy ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	420
<b>Mutalibova Muqaddasxon Abdunabi qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli platformalar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish .....	423
<b>Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Saminjonova Sevaraxon Axmadjon qizi, Abdihakimova Muqaddas Fahridinova, Matsapayeva Nigora Satbay qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining etnopedagogik kompetentligini shakllantirishda milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atining didaktik imkoniyatlari .....	428
<b>Pardayeva Gulchexra Safarovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	432
<b>Qipchaqova Sevinchxon Farxodjon qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim boshqaruvida ERP tizimlarini integratsiyalashning proaktiv modeli.....	436
<b>Raxmatillayev Oyatillo Zikrillayevich</b>	
Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish va loyihalashtirish .....	439
<b>Sadikova Shoista Akbarovna, Yangiboyeva Salomat Samandarovna, Yangiboyeva Sevinch Samandarovna</b>	
Milliy hunarmandchilik buyumlarini yasash orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish .....	442
<b>Xayitov Jonibek Xolboboyevich, Nabijonova Nilufar Nabijon qizi</b>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	446
<b>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</b>	
Сравнительно-типологический анализ юмора и гуманизма в творчестве Гафура Гуляма и Марка Твена.....	451
<b>Абдумунинова Махлиё</b>	
Особенности фонетико-фонематической речи (качественные и количественные) у младших школьников с речевыми расстройствами.....	453
<b>Заирова Н. Б.</b>	

# “ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA FAOLIYAT MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

**Bektemirova Asilabonu Akmal qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika institutining  
Maktabgacha ta'lim 1-kurs talabasi

**Ilmiy rahbar: Alikulova Muxayyo Sherovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarini “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida samarali tashkil etish hamda ta'lim jarayonini izchil olib borishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Rivojlantiruvchi markazlarning bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlash, ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, ijtimoiylashuvi va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, faoliyat markazlari orqali bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, sog'lom ta'lim muhitini yaratish hamda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom muhit, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiylashuv, “Men” konsepsiyasi, irodaviy sifatlar, tashabbuskorlik, individuallik, kreativlik, integratsiya.

**Abstract:** The pedagogical significance of effectively organizing activity centers in preschool educational institutions based on the “First Step” state curriculum and consistently conducting the educational process is highlighted. The role of development centers in comprehensively preparing children for school education, developing independent thinking, creativity, socialization, and communicative skills is scientifically analyzed. Particular attention is paid to developing children's interests and abilities, creating a healthy educational environment, and organizing integrated learning through activity centers.

**Key words:** healthy environment, professional preparation, socialization, self-concept, volitional qualities, initiative, individuality, creativity, integration.

**Аннотация:** Освещается педагогическое значение эффективной организации центров активности в дошкольных образовательных организациях на основе государственной учебной программы “Первый шаг” и последовательного проведения образовательного процесса. Научно проанализирована роль развивающих центров в комплексной подготовке детей к школьному обучению, формировании самостоятельного мышления, творческих способностей, социализации и коммуникативных навыков. Особое внимание уделено вопросам развития интересов и способностей детей, создания здоровой образовательной среды и организации интегрированного обучения посредством деятельности центров активности.

**Ключевые слова:** здоровая среда, профессиональная подготовка, социализация, концепция “Я”, волевые качества, инициативность, индивидуальность, креативность, интеграция.

## KIRISH

“Yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yarataypmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q”, – deya fikr yuritdi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 15-noyabr kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha o'tkazilgan jahon konferensiyasida <sup>[1]</sup>.



Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, davlat rahbari maktabgacha ta'lim sohasi va undagi tarbiyalanuvchi bolalar kelajagiga alohida e'tibor qaratib, yosh avlodni kichik yoshdan boshlab tarbiyalash siyosatini belgilab berdilar. Shu asosda 2017-yil 30-sentabrdagi Farmonga muvofiq "Maktabgacha ta'lim vazirligi" tashkil etildi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RBQ-595-son<sup>1</sup> Qonunning 3-moddasi "Asosiy tushunchalar" bandida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turidir", – deya keltirib o'tilgan<sup>[2]</sup>.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bu shunchaki ta'lim dargohi emas, balki bolalarning ichki olamidani kelib chiqib, ularni o'yin yordamida ta'lim tizimiga to'g'ri yo'naltira oladigan, bolalarning har tomonlama sog'lom rivojlanishini ta'minlab beradigan kichik, ammo maqsadi ulkan bir olamdird.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi mazmuni tahlil qilindi. Ma'lumotlarni olish jarayonida kuzatish, pedagogik tahlil, qiyosiy o'rganish va hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilarning ish tajribalari ham o'rganildi.

Tadqiqot davomida rivojlantiruvchi markazlarning bolalar rivojlanishiga ta'siri, ta'lim jarayonini integratsiyalashdagi ahamiyati hamda o'yin asosida tashkil etilgan faoliyatning samaradorligi tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar pedagogik va mantiqiy tahlil asosida umumlashtirilib, mavzu yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati va rivojlantiruvchi muhit shunday tashkil etiladiki, unda bolalar sog'lom rivojlanadi, shu bilan birga, bolalardagi qobiliyat va qiziqishlardan kelib chiqib ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Shu tartibda sog'lom rivojlantiruvchi muhit O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 323-sonli buyrug'i bilan 2025-yil 29-avgustda imzolangan takomillashgan 3-nashr "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida keltirib o'tilgan bo'lib, uning 9–10-ilovalari aynan shu haqidadir.

Bu ilovaning asosiy bandini "Qurish, konstruksiyalash va matematika", "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalash-tirish", "Til va nutq", "Fan va tabiat", "San'at" kabi 5 ta rivojlantiruvchi markaz tashkil etadi<sup>[3]</sup>. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ko'ra, ushbu markazlar bolalarning yosh xususiyatlariga va erkin ijod qila olishlariga mos holatda joylashtirilishi kerak.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar tashkil etilishining asosiy maqsadi bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini ularning qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib tashkil etish, ulardagi iste'dodlarni to'g'ri yo'naltirish, bolalarni ijtimoiy muhitga tayyorlash hamda ulardagi mustaqil fikrlash, ya'ni muloqot madaniyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Shuni ham aytib o'tish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlardagi ta'lim jarayoni asosan o'yin orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "MTTda rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etishga doir tavsiyalar, uslubiy tavsiyanoma" sig'a ko'ra: "Rivojlanish markazlarida bir vaqtning o'zida faol muloqot va bilish-ijodiy faoliyatga tarbiyalanuvchilarni yakka tartibda, shuningdek, kichik guruhlarda jalb etish mumkin. Rivojlanish markazlaridagi yetakchi faoliyat – bu o'yin hisoblanadi"<sup>[4]</sup>.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 4-fevral kuni "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan" takliflar taqdimoti bilan tanishdilar. Mazkur taqdimotda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri E'zozxon G'ofurjonovna Karimova: "Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinga asoslangan ta'lim modeli joriy etilib, bolaning tabiiy qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil qilinadi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quv muhiti yangilanadi", – deya fikr yuritdi<sup>[5]</sup>.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilishning ahamiyatli jihati bolalarda yirik motorika, mayda motorika, sensomotorika, "Men" konsepsiyasi, hissiyotlarni boshqarish, tengdoshlar bilan muloqot qilish, badiiy-ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiylashuv kabi ko'nikmalarni samarali rivojlantirishdan iboratdir.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RBQ-595-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-4646908>

Rivojlantiruvchi markazlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'g'ri joylashtirish va undagi faoliyat tartibiga e'tibor beradigan bo'lsak, "Qurish, konstruksiyalash va matematika" markazini zonalash muhim hisoblanadi. Chunki uning yonidan o'tayotganlar qurilmalarni buzib yubormasliklari kerak. Bu markaz orqali bolalarda fazoviy tasavvurlar, geometrik shakllarni farqlash ko'nikmasi, son-sanoq, qo'shish va ayirish kabi matematik amallarni to'g'ri bajara olish bilimlari shakllanib boradi.

"Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazida sahna muhim obyekt hisoblanib, bu markaz orqali bolalar qo'lqop teatri, barmoq teatri, stol va soya teatrlarini mustaqil tashkil etib, unda rol ijro etishlari mumkin. Bu markaz orqali bolalarda empatiya, ya'ni ijro etilayotgan qahramon obrazini his qila olish qobiliyati, improvizatsiya, erkin muloqot ko'nikmasi va "Men" konsepsiyasi rivojlanib boradi.

"Til va nutq" markazi guruh xonasining yorug'roq va tinch joyida tashkil etiladi. Bu markaz orqali bolalarda kreativlik, ya'ni ijodkorlik orqali ertaklar yaratish qobiliyati, harflarni havoda yozish orqali anglash, rasmlarga qarab hikoya tuzish hamda sog'lom muloqot ko'nikmalari shakllanib boradi.

"Fan va tabiat" markazi tuproq, o'simlik urug'lari, globus, mikroskop, uy va yovvoyi hayvonlarning namunalari bilan jihozlangan bo'lib, bolalar ekskursiyalar tashkil qilishlari va turli xil tajribalar o'tkazish orqali o'z bilimlarini oshirib boradilar.

"San'at" markazi orqali bolalarda ranglarni farqlash, tasavvurlaridagi tasvirni qog'ozda aks ettirish qobiliyati hamda loy ishi san'ati shakllanib boradi. Bu markazni tashkil qilishning muhim jihati markazdagi ijodiy faoliyatdan so'ng gigiyena qoidalariga amal qilgan holda qo'llarni yuvish uchun mos suv tushadigan jo'mraklar mavjud joy yaqinida joylashtirilishi kerakligidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar o'z xohishlaridan kelib chiqib rivojlantiruvchi markazlarni tanlaydilar va unda erkin ijod qiladilar. Rivojlantiruvchi markazlarda ta'lim jarayonini integratsiya, ya'ni 5 ta markazni o'zaro bog'lagan holda tashkil etish bolalarning bilim olishida keng poydevor yaratadi.

Misol sifatida oddiy olmani oladigan bo'lsak, uning shaklining dumaloqligi va son jihatidan nechta ekanligi "Qurish, konstruksiyalash va matematika" markazida, olmaning daraxtda o'sishi, daraxtning oldin gullab, keyin meva berishi, bu holatning bahor faslida sodir bo'lishi haqidagi bilimlar "Fan va tabiat" markazida, olma haqida qisqacha hikoya yoki she'rlar aytib yod oldirish "Til va nutq" markazida, undagi ranglar jilosi, olmaning qizil, yashil, sariq rangda bo'lishi hamda barglarining yashil rangdaligi "San'at" markazida, "Kichik bog'bon" ertagini sahnalashtirib ko'rsatish esa "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazida amalga oshiriladi. Bu sanab o'tilganlarning barchasi pedagog-tarbiyachining bilim va malakaviy mahoratidan kelib chiqqan holda integratsiya usulida olib boriladi.

Pedagog-tarbiyachilarning asosiy vazifasi sog'lom ijodiy muhit tashkil qilish, bolalarning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, bolalarni kuzatish va zarur hollarda ularga yordamchi shaxs sifatida ko'mak berishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 14-fevral kuni maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida davlat rahbari: "Bolalar tarbiyasi jarayonida o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi", – deya fikr bildirdi<sup>[6]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilishi bolalarning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularning mustaqil va erkin fikrlashini rivojlantirish hamda ijodiy salohiyatini oshirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur markazlar orqali bolalarda muloqot madaniyati, ijtimoiylashuv, kreativlik, hissiy barqarorlik va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Shuningdek, rivojlantiruvchi markazlarda o'yinga asoslangan ta'lim jarayonining tashkil etilishi bolalarning bilimlarni qiziqish asosida o'zlashtirishiga, ularning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali olib borishga xizmat qiladi. Ayniqsa, integratsiyalashgan ta'lim orqali bolalarning turli sohalarga oid bilimlari o'zaro bog'liq holda rivojlanib, ularning tafakkur doirasi kengayadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida rivojlantiruvchi markazlarning faoliyatini yanada takomillash-tirish, ularni zamonaviy didaktik vositalar bilan boyitish hamda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bolalarning qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqib ta'lim jarayonini tashkil etish, sog'lom va xavfsiz rivojlantiruvchi muhit yaratish kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha jahon konferensiyasi". – T., 2022-yil 15-noyabr.



2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonun. – 2019-yil 16-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "MTTda rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etishga doir tavsiyalar, uslubiy tavsiyanoma"si. – T., 2022-yil.
4. R. Mavlonova va boshqalar. "Pedagogika" darslik. – T.: "O'qituvchi", 2008-yil.
5. M. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. "Pedagogika". – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2000-yil.
6. A. Musurmonova. "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanma. – T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020-yil.
7. B. M. Umarov va boshqalar. "Pedagogika. Psixologiya" darslik. – T.: "IJOD-PRINT", 2019-yil.
8. J. Hasanboyeva va boshqalar. "Pedagogika" darslik. – T.: "Noshir", 2020-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.